



THE ACTIVITIES OF THEATER AND ART GROUPS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Kamola Ochilova

senior lecturer

Karshi State Technical University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek theaters, artistic groups, period of independence, cultural development, national art, social changes.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: This article analyzes the development processes of the activities of theaters and art groups in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. The article discusses how theater art and art groups adapted to social, cultural and economic changes in the post-independence period of Uzbekistan, as well as their role in the preservation and development of national culture. The article covers such issues as the programs of theaters and art groups, their repertoire policy, new plays and projects, as well as their activities within the framework of international cooperation. In addition, the influence of theaters and art groups on youth education and their role in society during the years of independence is analyzed in a comprehensive manner.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TEATR VA BADIY JAMOALAR FAOLIYATI

Kamola Ochilova

katta o‘qituvchi

Qarshi davlat texnika universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston teatrlari, badiiy jamoalar, mustaqillik davri, madaniyat rivoji, milliy san‘at, ijtimoiy o‘zgarishlar.

Annotatsiya: Ushbu maqola Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida teatr va badiiy jamoalar faoliyatining rivojlanish jarayonlarini tahlil qiladi. Maqolada O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan keyingi davrda teatr san‘ati va badiiy

jamoalarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlarga qanday moslashganligi, shuningdek, ularning milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi roli muhokama qilinadi. Maqola, teatrlar va badiiy jamoalarning dasturlari, ularning repertuar siyosati, yangi sahna asarlari va loyihalari, shuningdek, xalqaro hamkorliklar doirasidagi faoliyatlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, mustaqillik yillarida teatr va badiiy jamoalarning yoshlar tarbiyasidagi ta'siri va ularning jamiyatdagi o'rni keng ko'lamda tahlil qilinadi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТЕАТРАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ КОЛЛЕКТИВОВ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Камола Очилова

старший преподаватель

Каршинский государственный технический университет

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: театры Узбекистана, художественные коллективы, период независимости, развитие культуры, национальное искусство, социальные изменения.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы развития деятельности театральных и художественных коллективов в Республике Узбекистан в годы независимости. В статье рассматривается, как театральное искусство и художественные сообщества адаптировались к социальным, культурным и экономическим изменениям в период после обретения Узбекистаном независимости, а также их роль в сохранении и развитии национальной культуры. В статье рассматриваются такие вопросы, как программы театров и художественных коллективов, их репертуарная политика, новые постановки и проекты, а также их деятельность в рамках международного сотрудничества. Кроме того, в годы независимости будет проведен обширный анализ влияния театра и художественных коллективов на воспитание молодежи и их место в обществе.

Kirish: Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Madaniyat vazirligi tasarrufidagi muassasalar qatori teatrlar faoliyatini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berildi[1]. 1995 yil 20 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda ushbu Farmon ijrosini ta'minlash

maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 28 oktabrdagi Qarori e'lon qilindi[2]. Mazkur hujjatlarda sahna xodimlarining moddiy ahvolini yaxshilash va ular mehnatlarini rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bu yillarda teatrlarni rivojlantirish, jamoatchilikda teatr san'atiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, sohadagi ustuvor vazifalar sifatida davr talabi va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib teatrlar repertuarlari yangilanishi lozimligi belgilandi. Ko'rib chiqilayotgan davrda teatrlar repertuarlarida tarixiy mavzular yetakchi o'rin tutdi. Ayniqsa, Amir Temur tavalludining 660 yilligini keng nishonlash doirasida 1995-1997 yillarda respublika teatrlarida Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan 20 ga yaqin asarlar sahnalashtirildi[3]. Teatrlarda ilgari juda kam murojaat qilingan etnografik va folklor yo'nalishidagi spektakllar ma'lum bir uslub sifatida rivojlantirildi. Masalan "Alpomish" dostoni asosida respublika teatrlarida 10 ga yaqin spektakllar namoyish qilindi.

Qayd qilish joizki, teatrlar repertuarida zamonaviy voqelikni yuzaki aks ettiruvchi badiiy jihatdan sayoz asarlar ham paydo bo'ldi, aksariyat teatrlar moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarish maqsadida konsert-gastrol tadbirlariga e'tiborni kuchaytirdilar. Teatr san'ati sohasidagi ba'zi salbiy holatlarni bartaraf etish hamda yangicha tafakkurga asoslangan, tomoshabinning ma'naviy dunyosini boyitadigan, istiqloq ruhiga mos yorqin asarlar yaratish zaruratidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi (1998 yil 26 mart) Farmoni e'lon qilindi[4]. Mazkur Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi[5]. Unda Madaniyat ishlari vazirligining teatr tashkilotlari hamda O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi negizida "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi va uning qoshida Teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etilishi va birlashmaning vakolat doirasi aniq ko'rsatildi.

Asosiy qism: Mustaqillik yillarida teatr san'ati sohasida sog'lom raqobatni rivojlantirish maqsadiga qaratilgan respublika va xalqaro miqyosda turli festivallar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Ular orasida "Navro'z 92" mintaqaviy festivali, "O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlari – 95", "Teatr: Sharq va G'arb", "Ipak yo'li" teatr sayohati, "Ilhom", "Humo – 98" festivali, "Sarhisob-XX", "Seni kuylaymiz zamondosh" kabi festivallar nafaqat respublikada, balki xalqaro miqyosda ham mashhur bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan badiiy havaskorlik yo'nalishi ham tamomila yangi mazmun kasb etdi. Aynan bu yo'nalish milliy musiqa, yo'qolib borayotgan urf odatlar va milliy qadriyatlarni tiklash va ommalashtirishda muhim vosita bo'ldi.

2010 yildan teatrlarda davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi asarlarni sahnalashtirish, yoshlarning ma'naviy dunyosini

mustahkamlaydigan, oriyatini kuchaytiradigan, ibrat bo'ladigan zamonaviy qahramon obrazini yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu borada teatrlarda amaliy ishlar qilindi.

Natija va tahlil: Ayniqsa, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa jamoat tashkilotlarining tashabbusi bilan 2011 yil may oyida "Seni kuylaymiz, zamondosh" O'zbekiston teatrlarining I-Respublika tanlovi bo'lib o'tdi[6]. Festivalga tayyorgarlik jarayonida dramaturglar tomonidan zamon qahramoni obrazi ko'rsatilgan qator yangi pyesalar yaratildi. Ular jumlasiga mamlakatda bo'layotgan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan "Ezgulik yo'lida" (SH.Rizayev asari), fidoyi meditsina xodimlari haqidagi "Oq xalatli farishtalar" (F.Bobojonova asari), yangi paxta navini ixtiro etgan yoshlarga bag'ishlangan "Bahor shamoli" (N.Abbosxon asari), oddiy zavod ishchilari hayoti yoritilgan "Boshqacha odamlar" (O.Xakimov, S.Odilov asari) kabi dramatik asarlarni kiritish mumkin[7].

Yuqorida keltirilgan ko'rik tanlovning 2013 yilgi II-Respublika bosqichiga jami teatrlaridan 30 dan ortiq sahna asarlari tavsiya qilingan. Ular orasidan 15 ta asar tanlab olingan. Ushbu sahna asarlarida jamiyatning turli ijtimoiy tabaqasiga mansub shaxslarning hayoti zamon qahramonlari obrazlari sifatida tanlangan. Jumladan, zamonaviy ayol qiyofasini yaratishga ham alohida ahamiyat qaratildi. Shunday asarlar sirasiga Qo'chqor Norqobilning «Quyoshni sen uyg'otasan» nomli spektaklini kiritish mumkin[8]. Asarda tadbirkor o'zbek ayoli obrazi yaratilgan bo'lib, parchalanish yoqasida turgan oila hayoti aks etadi. Oddiy uy bekasi bo'lgan ayol o'zining irodasi, matonati, kuch-g'ayrati bilan ilg'or fikrli, shijoatli tadbirkor ayolga aylanadi va o'z oilasini saqlab qoladi.

O'zbekistonda 1991 – 2016 yillarda 53 ta professional teatrlar faoliyat yuritgan[9] bo'lib, ular 1 ta – opera va balet, 27 ta – drama, komediya va musiqiy, 25 ta – bolalar va yosh tomoshabinlar teatrlari edi. Ushbu yillarda xalq havaskorlik ijodiy jamoalarining soni 444 ta va bolalar badiiy jamoalari 49 taga yetdi. Bu jamoalarning 408 tasiga "Xalq havaskorlik jamoasi" va 36 tasiga "Bolalar namunali jamoasi" unvoni berilgan[10]. Ushbu badiiy havaskorlik jamoalari milliy qadriyatlar, unutilib borilayotgan urf-odatlarini qayta tiklash va targ'ib qilishda jonbozlik ko'rsatdilar. Ular xalq diplomatiyasining tiklanishida ham o'ziga xos o'ringa ega bo'ldilar.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, teatr va badiiy jamoalar jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda, balki milliy madaniyatimizning asosiy tayanchi sifatida xizmat qiladi. Teatr va badiiy jamoalar orqali milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar avlodlardan-avlodlarga o'tib, saqlanib qoladi va rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning madaniy barqarorligi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Teatr va badiiy jamoalar, shuningdek, yoshlarning estetik didini shakllantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ijtimoiy faol fuqarolar sifatida voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi davlat teatrlari va konsert tashkilotlarining maqomi to'g'risida" gi 11-sonli qarori. 13.01.1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 415-sonli qarori. 28.10.1995 y.
3. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi 1900 - 2007. – Toshkent, 2010. – B. 430.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida" PF-1980-sonli Farmoni. 26.03.1998 y.
5. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil eti" to'g'risida"gi qarori. 1998 yil 22 may. 223-sonli.
6. "Seni kuylaymiz, zamondosh!" O'zbekiston teatrlarining respublika tanlovi 2011 yildan boshlab har ikki yilda bir marta o'tkaziladi.
7. Fazilova M. Dramaturgiyada zamondosh qahramon obrazi // Sharq yulduzi. – 2015. – №2. – B. 166.
8. Asar 2015 yilda rejissor V.Umarov tomonidan O'zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan.
9. Узбекистан в цифрах. – Ташкент, 2017. – С. 98; Madaniyat vazirligi tasarrufidagi teatrlar soni 37 tani tashkil qilganligini eslatib o'tish joiz.
10. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. 2016 yilgi hisobot.